# 2020- yil yanvar-may oylari uchun Farg’ona viloyatida qurilish ishlari

Joriy yilning yanvar-may oylarida Farg’ona viloyatida jami **1 859,5** mlrd. so‘mlik qurilish ishlari bajarilib, o‘sish sur‘ati 2019- yilning yanvar–may oylariga nisbatan **93,6 %** ni tashkil etdi.




## 2020- yil yanvar-may oylarida qurilish ishlari hajmining tarkibi, ulushi % da




Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo’yicha shakllanadi.

Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo`lgan korxona va tashkilotlar tarkibi bo`yicha bo`linadi.




***Ma‘lumot uchun**: qurilish ishlari hajmi bu – o‘z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta‘mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.*



## Qurilish ishlari bo’yicha faoliyat ko’rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda




2020- yil 1- iyun holatiga ko’ra qurilish sohasida korxona va tashkilotlar soni 3,0 mingtani tashkil etib, o’tgan yilning mos davriga nisbatan 425 taga oshdi.

Jami qurilish sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko’payishining asosiy omili bu bino va inshootlar qurishda o’tgan yilga nisbatan **116,9 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **55,8 %**), fuqarolik obyektlarini qurish **116,7 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **11,3 %**), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining **115,8 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **32,9 %**) o’sishidir.



## Farg'ona viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni (birlikda)

| | holatiga ko'ra: | | O'tgan yilga nisbatan, % da |
|---|---|---|---|
| | 01.06.2019- yil | 01.06.2020- yil | |
| **Farg'ona viloyati** | **2585** | **3012** | **116,5** |
| ***shaharlar:*** | | | |
| Farg'ona sh | 692 | 802 | 115,9 |
| Qo'qon sh | 271 | 311 | 114,8 |
| Quvasoy sh | 88 | 106 | 120,5 |
| Marg'ilon sh | 249 | 302 | 121,3 |
| ***tumanlar:*** | | | |
| Oltiariq | 85 | 96 | 112,9 |
| Qo'shtepa | 88 | 95 | 108,0 |
| Bag'dod | 136 | 160 | 117,6 |
| Buvayda | 105 | 121 | 115,2 |
| Beshariq | 66 | 78 | 118,2 |
| Quva | 121 | 133 | 109,9 |
| Uchko'prik | 142 | 161 | 113,4 |
| Rishton | 61 | 65 | 106,6 |
| So'x | 28 | 33 | 117,9 |
| Toshloq | 109 | 126 | 115,6 |
| O'zbekiston | 64 | 80 | 125,0 |
| Farg'ona t | 63 | 88 | 139,7 |
| Dang'ara | 108 | 122 | 113,0 |
| Furqat | 56 | 66 | 117,9 |
| Yozyovon | 53 | 67 | 126,4 |



## Farg'ona viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni 01.06.2020- yil holatiga ko'ra (*ulushi %* da)




***Ma'lumot uchun***: *viloyatda soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalari Farg'ona sh. (26,6 %), Qo'qon shahar (10,3 %) va Marg'ilon (10,0 %) shahrlarida qayd etildi.*

Joriy yilning yanvar-may oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **121,9** mlrd. so’mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2019- yilning yanvar-may oylariga nisbatan **59,9 %** ga kamaygan bo’lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2019- yilning mos davridagi ko’rsatkich darajasidan **-3,6 %** punktga kamayib, **6,6 %** ni tashkil etdi**.**



## Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi, % da




***Ma‘lumot uchun:*** *yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko‘p ulushi Yozyovon tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining* ***30,6*** *% i yoki 2019 - yilning yanvar-may oyiga nisbatan* ***43,2 %),*** *Qo’qon (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining* ***28,2*** *% i yoki o‘tgan yilning mos davriga nisbatan* ***56,4*** *%), va Quvasoy shaharlari (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining* ***21,6 % i,*** *yoki o‘tgan yilning mos davriga nisbatan* ***2,6*** *marta ko’p ) ga to‘g‘ri keldi.*

## Qurilish ishlari umumiy hajmida kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi, % da




Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2020- yil yanvar-may oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **70,6 % i** to'g'ri kelib, 2019- yilning yanvar-may oylari ko'rsatkichiga nisbatan **4,2 %** punktga ko'paydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2019- yilning mos davriga nisbatan **99,5 %** ni tashkil etgan holda **1 312,8** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

*Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi o'tgan yilning mos davriga nisbatan **22,8** % ni tashkil etdi yoki **424,8** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2019- yilning yanvar-may oylariga nisbatan **91,7** % ni tashkil etdi.*

## Qurilish ishlari umumiy hajmida norasmiy sektorning ulushi

ulushi % da, mlrd. so’m







Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **66,9** mlrd. so’m qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi **3,6 %** ni tashkil etdi, nodavlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan esa **1792,6** mlrd. so’m ishlar bajarilib, jami qurilish ishlari hajmining **96,4 %** ni tashkil etdi.

## Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo‘lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, % da





## Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi

***2020- yil yanvar-may***

**80,0 %**

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurish bo'yicha bajarilgan. Jami qurilish ishlarining 80,0 % i yoki **1399,2** mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

**1,6 %**

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **22,6** mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 1,6 % ni tashkil etdi.

**70,9 %**

Kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **991,6** mlrd. so'm yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 70,9 % ni tashkil etdi.

**27,5 %**

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasiga **385,1** mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 27,5 % ni tashkil etdi.



## Hududlar kesimida qurilish ishlari 2020- yil yanvar-may oylarida

| | Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so‘m) | O‘sish sur‘ati, % da | Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya (mlrd. so‘m) |
|---|---|---|---|
| **Farg’ona viloyati** | **1859,5** | **93,6** | **1749,2** |
| ***Shaharlar:*** | | | |
| Farg’ona | 478,6 | 107,5 | 6,5 |
| Qo’qon | 140,9 | 80,7 | 10,9 |
| Quvasoy | 68,8 | 33,3 | |
| Marg’ilon | 236,5 | 143,1 | 1,8 |
| ***tumanlar:*** | | | |
| Oltiariq | 82,4 | 92,7 | |
| Qo’shtepa | 60,9 | 71,8 | |
| Bag’dod | 149,9 | 198,8 | 1,8 |
| Buvayda | 50,2 | 132,8 | |
| Beshariq | 37,6 | 46,2 | 4,4 |
| Quva | 85,0 | 84,7 | |
| Uchko’prik | 62,3 | 85,8 | |
| Rishton | 20,0 | 42,7 | |
| So’x | 26,8 | 96,6 | |
| Toshloq | 55,0 | 135,2 | |
| O’zbekiston | 45,3 | 106,8 | |
| Farg’ona | 37,0 | 91,1 | |
| Dang’ara | 111,0 | 103,3 | 4,2 |
| Furqat | 62,5 | 105,9 | |
| Yozyovon | 48,8 | 55,6 | |

*Hududlar bo’yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo’shgan holda 1719,6

## Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha qurilish ishlari,% da

### 2019- yil yanvar-may

| Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari | Fuqarolik obyektlarini qurish | Binolar va inshootlarni qurish |
|---|---|---|
| 11,8 | 12,1 | 76,1 |

### 2020- yil yanvar-may

| Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari | Fuqarolik obyektlarini qurish | Binolar va inshootlarni qurish |
|---|---|---|
| 10,5 | 12,1 | 77,4 |

***Ma'lumot uchun:*** *Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.*



## Binolar va inshootlar qurilishi

**ulushi % da**

Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **1,7 %** ni tashkil etib, 2019 - yilning yanvar-may oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **1,8 %** punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2019 - yilning yanvar-may oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **2,8 %** punktga ko'payib, **68,9 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2019 - yilning yanvar-may oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **1,0 %** punktga kamayib, **29,4 %** ni tashkil etdi.





## Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

**ulushi % da**

Fuqarolik obyektlarini qurish bo`yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **29,9 %** ni tashkil etdi va 2019- yilning yanvar-may oylariga nisbatan **3,5 %** punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **69,7 %** (**5,1 %** punktga ko'paydi) hamda norasmiy sektorning ulushi **0,4 %** (**1,6 %** punktga kamayish) ni tashkil etdi.





## Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

**ulushi % da**

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2019- yilning yanvar-may oylariga nisbatan **14,4 %** punktga kamaydi va **15,5 %** ni tashkil etdi. Qolgan **84,5 %** i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to`g`ri kelib, 2019- yilning yanvar-may oylariga nisbatan **14,4 %** punktga ko’paydi.



## Hududlar kesimida qurilish ishlari 2020- yil yanvar-may oylarida

### Eng yuqori hajm
*(mlrd. so’m)*

1. Farg’ona sh. 478,6
2. Marg’ilon sh. 236,5
3. Bag’dod t. 149,9



### Kichik hajm
*(mlrd. so’m)*

1. Rishton t. 20,0
2. So’x t. 26,8
3. Farg’ona t. 36,9

**Farg'ona viloyati statistika boshqarmasi**

**Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi**

**Aloqa telefoni: *(73) 249-87-26***